

BADIIY MATNLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Javxarova Nilufar Madaminjon qizi

O`zDJTU “Sharq filologiyasi” talabasi

Ilmiy rahbar: **Jumayeva Umida Abdurahim qizi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy matnlarning lingvopoetik(lingvo-til, poetika-badiiylik) tahlili masalalari yoritiladi. Lingvopoetika tushunchasi, uning asosiy xususiyatlari hamda badiiy matnlarda metafora, obrazlilik, stilistika va estetik funksiyalarni yuzaga chiqarishdagi o`rni tahlil qilinadi. O`zbek va jahon adabiyoti namunalari asosida lingvopoetik vositalarning badiiylikni shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari badiiy matnni tahlil qilishda lingvopoetik yondashuvning muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatadi.

Kalit so`zlar: lingvopoetika, badiiy matn, metafora, obrazlilik, stilistika, estetik funksiya

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы лингвопоэтического (лингво- язык, поэтика- художественность) анализа художественных текстов. Анализируется понятие лингвопоэтики ее основные особенности, а так же роль метафоры в создании образности, стилистики и эстетических функций в художественных произведениях. На примерах узбекской и мировой литературы раскрывается значение лингвопоэтических средств в формировании художественности. Результаты исследования показывают, что лингвопоэтический подход имеет важное научное значение при анализе художественного текста.

Ключевые слова: лингвопоэтика, художественный текст, метафора, образность, стилистика, эстетическая функция.

Abstract. This article highlights the issues of linguopoetic (linguo-language, poetic- artistry) analysis of literary texts. The concept of linguopoetics, its main characteristics, and the role of metaphor in bringing out imagery, stylistics, and aesthetic function in literary works are analyzed. Based on examples from Uzbek and world literature, the importance of linguopoetic devices in shaping artistry is revealed. The research results show that the linguopoetic approach hold significant scientific importance in the analysis of literary texts.

Keyword: linguopoetics, literary text, metaphor, imagery, stylistics, aesthetic function

Kirish. Badiiy matn tilning eng mukammal ko`rinishlaridan biri bo`lib, unda til birliklari nafaqat axborot yetkazish, balki estetik ta`sir ko`rsatish vazifasini ham bajaradi. Shu bois badiiy matnni o`rganishda lingvopoetik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvopoetika til birliklarining badiiy asardagi funksiyasini, ularning obraz yaratishdagi rolini va estetik ta`sir kuchini o`rganadi. Ushbu yondashuv orqali matnning leksik, grammatik va stilistik qatlamlari chuqur tahlil qilinadi. Natijada badiiy matnning ichki struktura xususiyatlari, muallifning badiiy maqsadi hamda asarning estetik qiymati yanada to`liq va aniq anglanadi. Lingvopoetik tahlil esa badiiy asarni ilmiy asosda tushunish va talqin qilish imkonini beradi.

Tahlil va muhokama. Badiiy matnlarning lingvopoetik tahlili til birliklarining asardagi estetik, obrazli va ekspressiv funksiyalarini ochib berishga qaratilgan muhim ilmiy yondashuv hisoblanadi. Lingvopoetik vositalar badiiy matnning mazmunini

boyitish bilan birga, uning hissiy ta'sirini ham oshiradi. Shuningsababli badiiy asarlarda metafora, obrazlilik, stilistik vositalar va estetik ifoda markaziy o'rin tutadi. Badiiy asarning eng muhim bosqichi til bo'lar ekan, biror asarni yuksak darajaga ko'tara olishda uni ishlatayotgan odamni qay muloqotdan foydalanayotgani va qaysi ifoda maqsadlarni ishlatayotgani eng muhim xususiyatlari hisoblanadi, biror ijodkorni tilini o'rganar ekanmiz, avvalo, eng e'tibor berishimiz kerak bo'lgan narsa uning tilimiz rivojiga o'z asarlari bilan qanday ta'sir o'tkazayotgani bo'ladi. Badiiy asarning bosh unsure so'z, umuman, til ekan, ana shu asarning chinakam san'at darajasiga ko'tara olishida uning tili, muallifning til vositalarini qay darajada qo'llay olishi asosiy omildir. Adabiyotimizda har bir iz qoldirgan ijodkor asarlarining tilini o'rganish, birinchidan, adibning mahoratini o'rganish, shu bilan birga, tilimiz rivojiga uning asarlarini ta'sirini, tadqiqotning esa tilshunosligimiz taraqqiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatayotganini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi. Tabiiyki, badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilishning bir qator tamoyillari mavjud. Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o'zbek tili materiallari asosida mufassal tadqiq etgan M.Yo'ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillarini ko'rsatadi:

1. Shakl va mazmun birligi asosida yondashuv
2. Makon va zamon birligidan kelib chiqish
3. Umumxalq tili va adabiyoti munosabati asosida baholash
4. Badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashuv
5. Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash
6. Badiiy matndagi eksplitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash
7. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantic xususiyatlarini aniqlash.

Masalan, "O'tkan kunlar" asarida "Kech kirib, Marg'ilon ko'chalari sukunatga cho'mgan edi." Bu yerda sukunatning harakat orqali asardagi fojiviy ruh va sirli muhit lingvistik ifodalangan. Qolaversa, asarda Kumushning ko'z yoshlarini "dur donalariga o'xshatish yoki uning holatini "Xazon bo'lgan gul" kabi tasvirlash, metaforaga yaqqon misol bo'la oladi.

Ushbu lingvopoetik vositalar asarning o'qishli bo'lishini ta'minlash bilan birga, kitobxonni o'sha davrning ijtmoyiy va ma'naviy iqlimiga olib kiradi.

Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romani o'zbek nasridagi lingvopoetik inqilob hisoblanadi. Agar, "O'tkan kunlar"da til bosiq va klassik bo'lsa, Cho'lponda til psixologik, ramziy va kesatqlarga boy.

Ramziylik va Metaforik uslubga misol: "uning ko'ngli qorong'i bir g'orga o'xshardi, u g'orning ichida allaqanday maxluqlar g'imirlashardi." Bu yerda qahramonning ichki qo'rquvi va shubhalari "g'or" va "maxluqlar" metaforasi orqali berilgan.

Qahramon nutqida uning ijtmoyiy qatlamiga xos so'zlar va hissiyotlar qorishib ketadi. Misol "Zebining yuragi allaqanday bir qush kabi potirlar, ammo bu qushning qanotlari bog'liq edi." Zebining ojizligi va erkka talpinishi "bog'liq qanot qush" obrazi orqali lingvopoetik ifodalangan.

Muallif o'quvchi bilan muloqotga kirishish uchun ritorik uslubdan foydalanishi "Nahotki, bu xalqning tongi otmasa? Nahotki, hamisha qorong'u kechada qolsa?" Bu yerda "kecha va kunduz" tushunchalari shunchaki vaqt emas, balki asirlik va hurlikning lingvistik timsolidir.

Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” epopiyasi lingvopoetik jihatdan juda murakkab va serqatlam asar.

Tolstoy insonning ichki dunyosini bevosita aytmaydi, balki tabiat hodisalari orqali “chizib” beradi.

Misol uchun, “Eski eman.. tushunarsiz, g'amgin bir maxluq kabi turardi.” (Andreyning tushkun holati.)

“Eman butunlay o'zgargan edi, u yashil burglar bilan qoplangan, hayotga to'la edi.” (Andreyning Natashaga bo'lgan muhabbatining qayta uyg'onishi.)

Bu yerda “eman” shunchaki daraxt emas, balki qahramonning ruhiy evolutsiyasini ifodalovchi lingvistik simvol (ramz) hisoblanadi.

Leksik-semantik vositalar va ularning badiiy-pragmatik ahamiyati Iqbol Mirzo she'riyatining lingvopoetik xususiyatlaridan biri- so'z tanlashdagi o'ziga xoslik va leksik-semantik vositalardan unumli foydalanishidir. Shoirning she'rlarida umumxalq til leksikasi bilan bir qatorda, she'riy neologizmlar, arxaizmlar, dialektizmlar va o'ziga xos okkasionlar ham uchraydi.

Masalan, shoirning “Ketish” she'rida qo'llangan \’yuraklarimni”, “ko'zlarimni” kabi so'zlar xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan ko'plik qo'shimchaning qo'llanishi bilan xarakterlanadi.” Yuraklarimni sindirgan odam, Ko'zlarimni ko'r qilgan odam, Yashayman desang yasha, Lekin meni tinch qo'y...”

Xulosa. lingvopoetik tahlil badiiy matnni chuqur o'rganish imkonini beruvchi muhim metoddir. U orqali til birliklarining estetik vazifasi, obraz yaratishdagi roli aniqlanadi. O'zbek va jahon namunalari shuni ko'rsatadiki, badiiy matnda har bir til birligi muhim ahamiyatga ega. Lingvopoetik yondashuv esa bu birliklarning yashirin ma'nolarini ochishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy. “O'tkan kunlar”-,2019
2. Cho'lpon “Kecha va kunduz”- 2018
3. Lev Tolstoy “Urush va Tinchlik”- 1986
4. Muhammadjonova G. Badiiy asar tahlili- Adabiyot uchqunlari”, 2018
5. M.Yo'ldoshev. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili-” Fan”, 2007
6. Mirzo I.Ko'ngil:she'rlar, dostonlar/Iqbol Mirzo.- 1996.
7. Rahimova A. Iqbol Mirzo she'riyatida ramzlar tizimi/filologiya masalalari- 2019.